

Talabgorning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini aniqlash	
T/r	Savollar
1.	Prezidentimizning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbuslarini mazmun-mohiyatini izohlang. Mazkur islohotlardan qanday natijalar ko'zlangan?
2.	Mamlakatimiz xavfsizligiga, jamiyat barqarorligiga putur yetkazuvchi qanday mafkuraviy tahdidlar mavjud deb hisoblaysiz?
3.	O'zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlarni mustahkamlashda qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
4.	O'zbekiston Respublikasi qaysi mintaqaviy va xalqaro tashkilotlarning a'zosi hisoblanadi?
5.	O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha so'nggi islohotlar nimalarda aks etadi? Adliya vazirligi tizimida bu borada qanday mexanizmlar yaratilgan?
6.	“Ommaviy madaniyat” tushunchasi va uning bugungi kundagi o'rnini yoritib.
7.	Tarbiyaning milliy va xorijiy tajribalardagi mushtarakligi va o'ziga xosligi nimalardan iborat?
8.	Markaziy Osiyo mintaqasidagi hozirgi mafkuraviy jarayonni baholab bering?
9.	Hozirgi davrda informatsion xurujlarning qaysi shakl va turlari keng tarqalgan?
10.	So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mazkur islohotlar uchun qanday tamoyillar asos qilib olindi?
11.	Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini shaxsiy tajribangizdan kelib chiqqan holda asoslang.
12.	Yurist uchun zaruriy bo'lgan kasbiy ko'nikmalar ichida yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning kasbiy faoliyatda qanday o'rin tutishini asoslab bering?
13.	Huquqiy munosabatlarda, huquqshunosning kundalik faoliyatida etiket qanday namoyon bo'lishi lozim?
14.	Obro' va e'tibor (reputatsiya) nima hamda uning yurist kasbida ahamiyati qanday?
15.	Har bir inson kasb tanlashda o'zining hayot tajribasi, qiziqishlari va intilishlariga qarab hayot yo'lini tanlaydi. Sizning yurist mutaxassisligini egallashingizda qanday shaxslarning hayot tajribasi ta'sir ko'rsatdi?

16.	Axloqiy fazilatlar deganda nimani tushunasiz?
17.	Jamiyatda adolatsizlik holatlariga qarshi kurashda yuristlarning o'zni va roli qanday? Fikringizni misollar bilan tushuntiring?
18.	Ma'lum bir maqsadga erishishda axloqiy fazilatlarining inson hayotidagi ahamiyati qanday?
19.	Jamiyatda qonuniylik va adolat hukm surishi uchun juda ko'p omillar amal qilishi kerak. Shunday omillardan biri aholining o'z huquq va majburiyatlarini yaxshi bilishi, ularni amalga oshira olishidir. Aholining huquqiy ongini ko'tarishda yuristlarning o'zni va roli nimalarda namoyon bo'ladi?
20.	Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalashdan ko'zlangan maqsad nima deb o'ylaysiz?
21.	Yuridik sohani egallashni maqsad qilib olgan har bir kishi, albatta, huquqshunoslikka qiziqib, u haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'ladi, chunki yurist kasbi jamiyatning huquqiy tizimi bilan chambarchas bog'liq. Mazkur sohani tanlashda siz qaysi jihatlarga ko'proq e'tibor qaratgan bo'lar edingiz?
22.	Shaxsiy kunlik rejangizni tuzayotganingizda asosiy va ikkilamchi vazifalarni ado etishda "vazifalarni bo'lish" qoidasiga amal qilasizmi, agar shunday bo'lsa yoritib bering.
23.	Oldingizga qo'ygan eng asosiy maqsad va unga erishish yo'lida amalga oshirilishi zarur bo'lgan kichik maqsadlaringizni bayon qiling.
24.	Yurist etikasida axloqiylik bilan axloqsizlik holatlari qanday o'rin tutadi?
25.	Yurist uchun zaruriy bo'lgan kasbiy ko'nikmalar ichida yozma nutq o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, yurist faoliyati bevosita hujjatlar bilan bog'liq holda kechadi? Yozma nutqning kasbiy faoliyatda tutgan o'rnini asoslab bering.
26.	Ma'naviyat va ma'rifat tushunchalariga izoh bering?
27.	Ma'lumki, yuristlar faoliyati bevosita jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etish bilan bog'liq. Fikringizcha, yuristlar bunday masalalarni hal etishda qanday tamoyillarga tayanadilar?
28.	Qadimgi Rimda amaliyotchi yurist, albatta, notiq bo'lishi talab etilgan. Agarda, birorta yuristning nutqi aholida avvalgiday qiziqish uyg'otmasa, bu holda bu yuristning ishi orqaga keta boshlagan, chunki unga kam kishi yoki umuman hech kim himoya so'rab murojaat qilmagan. Yurist faoliyatida og'zaki nutqning tutgan o'rnini tushuntirib bering.
29.	Jamiyatda ayrim insonlar yoshligidan ma'lum bir kasbga qiziqib, shu kasb egasi bo'lishi uchun doim harakat qiladi. Ayrim toifadagi insonlarning kasb tanlashida esa ularda shakllangan xarakter katta rol o'ynaydi. Sizningcha, yurist

	kasbini egallash uchun shaxsda qanday xarakter yoki sifatlar shakllangan bo‘lishi kerak?
30.	Jamiyatda ayrim toifadagi shaxslar korrupsiya boshqa sohalarga qaraganda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari orasida keng tarqalgan, degan fikrda. Bo‘lajak huquqshunos sifatida siz bunga qanday qaraysiz va uni o‘zgartirish uchun nima qilgan bo‘lardingiz?
31.	Sizni o‘rab turgan muhitda o‘z ishlaringizni rejalashtirib yurishingizga qaramay ayrim omillar tufayli vaqtingiz rejadani tashqari ishlarga sarflanadi. O‘z shaxsiy misolingizda shunday holatlarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo‘yicha qanday takliflarni aytgan bo‘lardingiz?
32.	Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish deganda nimani tushunasiz?
33.	Jamoa muvaffaqiyatga erishishi uchun jamoa yetakchisi – liderning ahamiyati katta. Jamoani muvaffaqiyatli boshqarishda liderning vazifalari, xatti-harakati va yetakchilik sifatlarini tahlil qiling.
34.	Ishlarni rejalashtirish samaradorlikni oshirishga qanchalik yordam beradi? Ishlarni qanday tartibda rejalashtirgan foydaliroq? Xotiradami yoki qog‘ozga tushirilganmi?
35.	Gen ya’ni tug‘ma qobiliyatlar tabiatda eng kuchli iqtidor sohiblarini yaratadi. Siz ushbu fikrga qanchalik qo‘shilasiz? Masalan, rahbarlik yoki liderlik qobiliyatlari tug‘ma bo‘lishi mumkinmi?
36.	Siz oldingizga qo‘ygan maqsadingizga erishishda namuna bo‘lishi mumkin bo‘lgan zamonamizning eng muvaffaqiyatli kishilari faoliyatidan misollar keltiring.
37.	Yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni qanday tarbiyalash mumkin?
38.	Huquqshunoslik sohasini tanlaganlardan yuksak ma’naviy fazilatlarni egallash talab etiladi. Sizningcha, ana shu yuksak fazilatlar deganda nimalar tushuniladi?
39.	“So‘zamollik” va “notiqlik”ning o‘xshash va farqli jihatlarini izohlab bering. Ushbu ko‘nikmalarni qanday rivojlantirish mumkin?
40.	Ijtimoiy tarmoqlarning hayotingizdagi o‘rni qanday? Siz ulardan qanday maqsadlarda foydalanasiz?
41.	Fuqarolarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun nimalar qilish lozim deb hisoblaysiz?
42.	Huquqshunosning muomala madaniyati va uning etiket jihatdan barkamol bo‘lishi lozimligi yuzasidan fikrlaringizni yoritib bering.

43.	Korrupsiya va uning jamiyat rivojiga bo'lgan salbiy jihatlari haqida o'z fikr va mulohazalaringizni bayon qiling. Korrupsiyaga toqatsizlik deganda nimani tushunasiz?
44.	Siz motivatsiyani qanday tushunasiz va uni kimlardan yoki nimalardan olasiz?
45.	Yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish uchun nimalar qilish lozim deb hisoblaysiz?
46.	Fuqarolik jamiyatini rivojlanishida salohiyatli va malakali huquqshunosning roli haqida fikr yuriting.
47.	Gender tenglik deganda nima tushunasiz. Yangi O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash borasida qanday amaliy islohotlar amalga oshirilmoqda?
48.	Prokrastinatsiya ya'ni biror ishni bajarishni dangasalik natijasida yoki sababsiz kechiktirish bilan bog'liq muammolarga duch kelganmisiz? Punktuallik, ya'ni har bir ishni o'z vaqtida bajarish ko'nikmasini qay darada o'zlashtirgansiz?
49.	Davlat xizmatlari markazlarining asosiy vazifalari va "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyilining asosiy mazmunini yoritib bering.
50.	Yoshlarning ma'naviy kamol topishiga salbiy ta'sir etuvchi omillar yuzasidan fikr va mulohazalaringizni bildiring. Kitobxonlikni targ'ib qilish orqali bu muammolarga yechim topish mumkinmi?
51.	Bugungi kunda inson vaqtini o'g'iraydigan qanday vositalar ya'ni xronofaglarni bilasiz va ulardan qay tarzda oqilona foydalanish mumkin deb o'ylaysiz?
52.	Sizningcha, qanday omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi?
53.	Huquqshunosning professional faoliyatida shaxsiy fazilatlarining roli va ahamiyati qanday?
54.	Shaxsiy rivojlanish rejasini tuzishda shaxs o'zini o'zi real baholashi qanchalar muhim? Fikringizni hayotiy misollar bilan asoslang.
55.	Huquqshunos o'z oldiga qo'yishi mumkin bo'lgan biror yirik maqsad misolida unga erishish uchun kichik va o'rta muddatlarda amalga oshiriladigan ishlarni aytib bera olasizmi?
56.	Shaxsiy rivojlanish rejasini tuzishda shaxs o'zini o'zi real baholashi qanchalar muhim? Fikringizni hayotiy misollar bilan asoslang.
57.	Huquqshunos faoliyatida shaxsiy rivojlanishning aniq rejasiga ega bo'lish unga qanday imkoniyatlar yaratadi, deb hisoblaysiz?
58.	Huquqshunos nutqining ta'sirchanligi qanday omillarga bog'liq?

59.	Kishilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda kitobning ahamiyati nimada deb bilasiz?
60.	Sizningcha, huquqshunos nutqi boshqa kasb egalari nutqidan qaysi muhim sifatlari bilan ajralib turishi lozim?
61.	Aristotel: "Kishining go'zalligi libosida emas, balki tilida" degan ekan. Savol: Buyuk faylasufning bu fikrini qanday izohlash – sharhlash mumkin?
62.	Omma oldiga chiqib nutq so'zlash huquqshunoslardan juda ko'p sifatlarni, fazilatlarni talab qiladi. Savol: Ularning ayrimlarini kengroq izohlab bera olasizmi?
63.	Davlat ayblovchisi – prokurorning suddagi nutqi qanday me'yorlar asosida tuzilishi kerak?
64.	Advokat nutqini samarali, sud qaroriga o'z ta'sirini o'tkaza oladigan darajada bo'lishini ta'minlaydigan qanday muhim omillarni keltira olasiz?
65.	Uzluksiz ma'naviy tarbiya – milliy yuksalish kafolati bo'la oladimi?
66.	Mantiqiy fikrlashni shakllantiruvchi omillarga nimalar kiradi?
67.	Mantiqiy fikrlashning asosiy talablarini tushuntiring.
68.	Huquqshunos faoliyatida tafakkur qonunlarining ahamiyati nimalar bilan izohlanadi?
69.	Yurist mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirib borishi bilan qanday ko'nikmalarga ega bo'ladi?
70.	Nima uchun yuristlar o'zida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishi kerak?
71.	Nima uchun to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish kerak, yurist faoliyatida to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarining o'rnini qanday?
72.	Siz qarorlarni qanday qabul qilasiz? O'zingizning tajribangizdan kelib chiqib misollar keltiring.
73.	Jamoadi ishini tashkil etishda liderning rolini tushuntiring.
74.	Rahbar va lider tushunchalari o'rtasidagi mushtarak va farqli jihatlar bormi?
75.	Jamoa ishining afzalliklari. Jamoa ishi muvaffaqiyatining asosiy omillarini sanang.
76.	Huquqshunoslar jamoasi ishini to'g'ri tashkil etishlari uchun nimalarga e'tibor qaratishlari lozim?

77.	Axloq va huquq o'rtasida qanday o'xshash va farqli tomonlar mavjud?
78.	Yurist kasb etikasining eng muhim xususiyatlarini yoritib bering.
79.	Axloqiy sifatlarning shaxs takomili, uning hayot yo'lidagi ijobiy ta'siri nimalarda namoyon bo'lishi xususida hayotiy misollar yordamida mulohaza yuriting.
80.	Mutaxassisning mehnat faoliyati, kasbiy yutuqlarida unga qanday axloqiy sifatlar yordam beradi?
81.	"Isbotlanmagan ayb – isbotlangan aybsizlikka teng" degan qoidani tushuntirib bering?
82.	Manfaatlar to'qnashuvi deganda nimani tushunasiz? Yuristning manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda o'rni qanday?
83.	Shaxs ma'naviyatini shakllantirishda ta'limning rolini yoritib bering.
84.	Shaxs ma'naviyatini rivojlantirishda ma'naviy qadriyatarning o'rni qanday?
85.	Odamni shunchaki eshitish bilan astoydil tinglash o'rtasida qanday farq bor? Qay biri foydaliroq ekanini misollar bilan izohlang.
86.	Siz o'zingizni jamoada ishlay oladigan odam deb hisoblaysizmi? Javobingizni hayotiy misollar bilan asoslang.
87.	Nima uchun ish beruvchilar sizning nizoni hal qila olish ko'nikmangiz bor-yo'qligiga katta e'tibor qaratishadi, deb o'ylaysiz?
88.	Oldinga qo'yilgan maqsadga to'la erishish uchun shaxsdan nimalar talab qilinadi?
89.	Kuchli tazyiq yoxud bosim ostida qaror qabul qilishingizga to'g'ri kelganida, vaziyatdan qanday chiqar edingiz?
90.	Muzokaralar olib borish ko'nikmasini qanday shakllantirish mumkin?
91.	Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning asosiy usullari nimalar bo'lishi mumkin?
92.	Odil sudlov qaysi axloqiy va huquqiy asoslarga tayanishi lozim?
93.	Sud jarayonining axloqiy xususiyatini ta'minlashda sudyaning roli nimalardan iborat bo'ladi?
94.	Sud muzokarasi ishtirokchilariga bo'lgan umumiy axloqiy talablar haqida gapirib bering.

95.	Shaxs va millatning ma'naviy kamoloti o'zaro bog'liqmi?
96.	Sizningcha, huquqshunos imijining zamonaviyligi nimalarda namoyon bo'ladi?
97.	Zamonaviy yurist imijini shakllantirish bilan o'z-o'zini rivojlantirish o'rtasida qanday aloqa mavjud, - deb o'ylaysiz?
98.	Huquqiy munosabatlarda, huquqshunosning kundalik faoliyatida etiket qanday namoyon bo'lishi lozim?
99.	Ijobiy imij yaratish orqali qanday masalalar hal qilinadi?
100.	Muayyan imijni shakllantirishning asosiy maqsadi nima? Yurist imijini shakllantirishning o'ziga xos jihatlarini yoriting.